



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2024

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлоқ
хужалиғини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжасва Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далам педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети


Page Maker | Верстка | Са, ифаловчи: @tadqiqotdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Чу Бей Бей ЗАМОНАВИЙ ДУНЁДА МАДАНИЙ-ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БУЮК ИПАК ЙЎЛИНИНГ ЎРНИ.....	4
2. Yoo In Young ILK O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO XALQLARINING SILLA QIROLLIGI BILAN IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARI.....	9
3. Umurzok Alibekov USTRUSHONA DENQONCHILIK MADANIYATI TADRIJIY TARAQQIYOTIDA ARXAIK DENQONCHILIK AN'ANALARINING O'RNI.....	14
4. Нилуфар Джураева ЖАДИДЧИЛИК: МИЛЛИЙ МАОРИФ ТИЗИМИГА АЁЛЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ МАСАЛАСИ.....	23
5. Обиджан Мадаминов ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО ИМИЖИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ТАРҒИБ ҚИЛИШ МАСАЛАСИ.....	31
6. Моҳира Матназарова ҚАДИМГИ ХОРАЗМ КЎЧМАНЧИ ЧОРВАДОРЛАРИНИНГ ҲУДУДИЙ ЖОЙЛАШУВИ МАСАЛАЛАРИ.....	36
7. Сапарбой Наврузов АКАДЕМИК РАССОМ ДМИТРИЕВ КАВКАЗСКИЙНИНГ ХИВА ТААССУРОТЛАРИ.....	41
8. Ismoil Nurmetov XX ASRNING 20-30 YILLARIDA O'ZBEKISTONDA HUQUQ-TARTIBOT ORGANLARI FAOLIYATI (Xorazm viloyati misolida).....	50
9. Севара Пулатова МАДАНИЙ ОМИЛЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ТАЪСИРИ ХУСУСИДА.....	56
10. Sardor Umarov BIRLASHGAN GERMANIYA: IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLAR.....	62
11. Баҳодир Эшов ҚАДИМГИ СЎҒДНИНГ МИНТАҚАВИЙ МИГРАЦИЯ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....	69
12. Одил Эргашев ҚОПЧИҒОЙ УСТАХОНАСИ МУСТЪЕ ДАВРИ КОМПЛЕКСИНИНГ МАДАНИЙ-ДАВРИЙ ХОСЛИГИ ҲАҚИДА.....	76



Umurzok Yoʻldashevich Alibekov,
Guliston davlat universiteti
umirzoq.alibekov.2022@gmail.com

USTRUSHONA DEHQONCHILIK MADANIYATI TADRIJIY TARAQQIYOTIDA ARXAIK DEHQONCHILIK ANʼANALARINING OʻRNI

For citation: Umurzok Y. Alibekov. THE ROLE OF ARCHAIC AGRICULTURAL TRADITIONS IN THE GRADUAL DEVELOPMENT OF USTRUSHONA AGRICULTURAL CULTURE. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 2, pp.14-22

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10643331>

ANNOTATSIYA

Maqolada Ustrushonada anʼanaviy dehqonchilik madaniyatining arxaik uslublari, ularning taraqqiyoti va transformatsion yarayonlari, atrof mintaqalar bilan savdo iqtisodiy aloqalarda tutgan oʻrni hamda ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan. Dehqonchilikning turli sohalarida erishilgan yutuqlar, loyqa dehqonchiligi, lalmikor dehqonchilik, agrar sohadagi inqilob, sugʻorma dehqonchilik, gidrometeriologik tasavvurlar, irrigatsiya tizimi, toshqin jadvali, landshaft masalasi moddiy madaniyat, yozma manbalar asosida tahlil qilinib, dehqonchilik madaniyatidagi transformatsion jarayonlari ekomuhit bilan uzviy bogʻliqligi yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: selob, yoyilma, loyqa, relef, mezolit, lalmikor dehqonchilik, agrar inqilob, sugʻorma dehqonchilik, arxaik, gidrometeriologik, irrigatsiya, koriz, buloqlar, anhor, shahar, dinor, toshqin jadvali, etnologik, qovun sayli, evolyusiyasi, termachilar, landshaft.

Умурзок Юлдашевич Алибеков,
Гулистанский государственный университет
umirzoq.alibekov.2022@gmail.com

РОЛЬ АРХАИЧНЫХ ЗЕМЛЕДЕЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ В ПОСТЕПЕННОМ РАЗВИТИИ УСТРУШОНСКОЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ

В статье предпринята попытка раскрыть архаические методы традиционной земледельческой культуры в Уструшане, процессы их развития и трансформации, роль и значение торгово-экономических связей с окружающими регионами. На основе материальной культуры, письменных источников анализируются достижения в различных областях сельского хозяйства, грязевое земледелие, богарное земледелие, революция в аграрном секторе, орошаемое земледелие, гидрометеорологические концепции, оросительная система, уровень паводков, ландшафтные вопросы неразрывно связаны с экосистемой.

Ключевые слова: наводнение, распространение, ил, рельеф, мезолит, богарное земледелие, аграрная революция, орошаемое земледелие, архаика, гидрометеорология, ирригация, насморк, родники, якорь, город, динар, паводковая карта, этнологический, сбор дыни, эволюция, сборщики, пейзаж.

Umurzok Y. Alibekov,
Gulistan State University
umirzoq.alibekov.2022@gmail.com

THE ROLE OF ARCHAIC AGRICULTURAL TRADITIONS IN THE GRADUAL DEVELOPMENT OF USTRUSHONA AGRICULTURAL CULTURE

ABSTRACT

In the article, an attempt was made to reveal the archaic methods of traditional agricultural culture in Ustrushona, their development and transformation processes, the role and importance of trade and economic relations with the surrounding regions. Achievements in various fields of agriculture, mud farming, dry farming, revolution in the agrarian sector, irrigated agriculture, hydrometeorological concepts, irrigation system, flood table, landscape issues are analyzed on the basis of material culture, written sources, transformational processes in farming culture are inextricably linked with the ecosystem is explained.

Index Terms: flood, distribution, silt, relief, Mesolithic, rainfed agriculture, agrarian revolution, irrigated agriculture, archaic, hydrometeorology, irrigation, runny nose, springs, anchor, city, dinar, flood map, ethnological, melon harvesting, evolution, collectors, landscape.

1. Dolzarbligi:

Ibtidoiy kishilar o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishida o'rnashgan hududlari tabiiy-geografik muhiti bilan faol adaptatsion jarayonga kirishishi, tabiatning o'ziga xos injiqliklari va in'omlari bilan tanishishlariga majbur edi. Markaziy Osiyo tog'li hududlarida yashagan ibtidoiy ovchi – termachilar jamoalari mezolit davrida daryolar, soylar, ko'llar sohillariga o'rnashib, umrguzaronlik qila boshlaganlar. Mintaqamizning issiq iqlimligi tufayli ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanishi jarayonida yog'ingarchilik, sel yo'llari, daryo-soylarning suv sathi markaziy e'tiborda bo'lgan. Ta'kidlab o'tmoq joizkim onalar jamoasi (matriarxat) davridan shakllangan so'qa (motiga) dehqonchiligidan, sug'orma-dehqonchiligi an'analari asoslanguncha anchalik evolyusion davrini qamrab oldi. Albatta bu davrda dehqonchilik bilan bog'liq, astronomik, gidrometeriologik, tuproq, o'simliklar olamiga doir ilmiy bilimlar, tajribalar to'planib bordi.

Mil. avv. VIII-VII ming yilliklarga kelib insoniyat ibtidoiy turmush tarzida to'ntarish yuz berdi – Old Osiyoda “agrar inqilob” (“Neolit inqilobi”) amalga oshdi, dehqonchilik madaniyati yuzaga keldi [14:232]. Mil. avv. VII ming yilliklarning oxirlari – VI ming yilliklarning boshlarida Markaziy Osiyoda ham dehqonchilik madaniyati markazlari vujudga kela boshladi [15:81-94].

Turkiston, Molguzar tog' tizmalari va Mirzacho'lning suv manbalari bo'lgan daryo, soy irmoqlari tog'li mintaqalarda chuqur soylarda tez oqqanligi sabab, bepoyon lalmikor dehqonchilik maydonlari kengayib rivojlanib borib, ibtidoiy dehqonchilik an'analari anchalik davrlar saqlanib qoldi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Moddiy madaniyat tarixini arxeoetnologik ma'lumotlar asosida yoritish qadimshunos S. P. Tolstov, akademik Y. G'ulomov, akademik A. Muhammadjonovlarning [22:8-9] fundamental tadqiqotlarida mufassil namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarida Shimoliy Ustrushonada manzilgohlarida arxeologik tadqiqot olib borgan, A. A. Gritsina, M. H. Pardayev, S. S. Suyunov, B. B. To'ychiboyev kabi qadimshunoslar tomonidan o'rganilib [7; 8; 24; 26] ilk dehqonchilik madaniyatining asoslanishi, rivoji masalalariga etibor bergan.

Shuningdek arxaik dehqonchilik an'analari, mintaqa xo'jalik hayotida lalmikor dehqonchilikning tutgan o'rni, arab sayyohlari manbaviy ma'lumotlaridan[13] mavzuni mohiyatini yoritishda foydalanildi.

Sobiq itifoq davrida shimoliy Tojikistonda elshunos N. N. Yershov, akademik N. O. Tursunovlar [11:143; 27:282-319], xo'jalik hayotning turli jabhalariga doir etnologik tadqiqot, tahlillarni amalga oshirgan bo'lib, Ustrushonada arxaik dehqonchilik an'analari, lalmikor dehqonchilikning rivoji, ijtimoiy turmushda tutgan o'rnini ochib berishda ilmiy ma'lumot sifatida foydalanildi.

Mustaqillik yillarida Shimoliy Ustrushona moddiy madaniyati asoslanishi va tadrijiy taraqqiysi arxeologik tadqiqotlar, manbaviy ma'lumotlarga tayanilib yangicha yondashuvlar asosida o'rganilmoqda. Zamonaviy aridizatsiya jarayoni, iqlimning keskin isib ketishi muommolari, lalmikor dehqonchilikning asoslanishi, ko'lami, mahsuldorligining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, arxaik an'analarni axeoetnologik tahlili dolzarblik kasb etmoqda. Tadqiqot jaryonida tizimli yondashuv, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, induktiv va detektiv xulosa chiqarish kabi usullardan foydalanildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Akademik A. Muhammadjonovning to'plagan arxeo-etnologik ma'lumotlariga ko'ra, Turkiston tog'lariga tutash, Nurota tog' tizmasining shimolida tog' etaklarida yashovchi mahalliy aholi har yili bahor kirishi bilan kunlarning tez isib, tog'larda qorning erishini va yomg'ir yog'ib selob kelishini sabrsizlik bilan kutgan. Sel suvi bilan qoplanadigan tekislikni "Yoyilma", sel bilan kelib cho'kkan unumdor suyuq bo'tanani "loyqa" deb atashgan. Har bir soy etagidagi loyqa bosadigan yoyilma qishloq aholi o'rtasida qadim-qadim zamonlardan oq taqsimlanib [21:8-9], seldan so'ng loyqaga urug' sohib parvarishlangan va hosil olingan.

Turkiston, Molguzar tog' tizmalari shimolida istiqomat qiladigan aholi qadimdan mavjud relief imkoniyatlaridan kelib chiqib lalmikor dehqonchilikda ham mo'l hosil yetishtirishgan. Ba'zi ko'proq suv talab qiladigan lalmikor ekinlar uchun namlik anchalik saqlanib turadigan shimol yoki g'arbga yo'nalgan teskay, o'ngirlar hududi tanlangan. Etnolog olimi S. Soatovanning G'allaorol tog' oldi hududiga tadqiqotlariga ko'ra qanchalik dengiz sathidan baland joylarda lalmikor dehqonchilik qilinsa, hosildorlik salmog'i ortib borgan [25:335-338]. Lalimkor dehqonchilik qonuniyatiga ko'ra urug' "yomg'ir ostida qolishi" kerak bo'lgan va g'alla, moyli don ekinlarining qurg'oqchilikka chidamli navlari ekilib, kuzatuvlarga ko'ra hatto polizchilikda lalmikor qovun-tarvuz yetishtirish mintaqa dehqonchiligida asosiy ekin turlaridan bo'lgan.

Shuningdek tog' oldi tumanlarida yashovchi aholi chashma, buloqlar suvini bir joyga to'plash va ulardan kerakli vaqtda foydalanish maqsadida qadim zamonlardayoq dara ichlarida, tog' etaklarida "qulfakli" hovuzlar qurishgan [21:14-19]. Hovuz suvlari ariqlari orqali qulay yerlarga olib borilib dehqonchilik qilishgan, bog'lar yaratib "chorbog'" deb atashgan. Chorbog'lar, dehqonchilik maydonlari qishloq yoki qo'shni qishloqlar aholisi orasida bo'lib olingan, sug'orishda arxaik navbat tartibiga qattiq amal qilishgan. Har bir sel bosqinidan so'ng hashar uyushtirilib, soylardagi, ariqlardagi suv yo'li, buloqlarning ko'zi ochilgan. G'allaorolda suvdan umumiy foydalanuvchi qishloqlar "qazansherik" deb nomlanib umumiy ish boshqaruvchini "eldi jugurtagi" [25:335-338] deyishgan.

Akademik Y. G'ulomov, akademik A. Muhammadjonov, qadimshunos olimi G. N. Lisitsinaning ilmiy xulosalariga ko'ra qadimda Markaziy Osiyo daryolari sersuv bo'lgan, erta bahordan boshlab kuzga qadar vaqti-vaqti bilan bo'ladigan suv toshqinlari unumli dehqonchilik manbaii hisoblangan [9:98-102; 21:5]. Qadimdan Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon va boshqa kichik daryo, soylar atrofida yashovchi ajdodlarimiz har yili sodir bo'ladigan toshqinlar jadvaliga ega ekanligini etnologik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi [12:32-33; 1;2].

Qadimiy Ustrushonada sug'orma dehqonchilik madaniyati mil. avv II-I ming yilliklarda asoslanib [4:137], qayr (liman) dehqonchiligi iborat bo'lgan, tartibli sug'orma dehqonchilikka esa mil. avv. I ming yilliklarda to'liq o'tildi [26:18]. Sug'orma dehqonchilikda daryo, soy, irmoq suvlari toshqinlari to'g'risidagi bilimlarga asoslangan yil hisobi, toshqin jadvali muhim o'rin tutadi. Daryo-irmoqlarining suv bosadigan qirg'oqlari, soyliklari, quyi havzalarida dehqonchilik qilindi.

Mil. avv I ming yillikdan boshlab toshqin suvlari tartibga solinib, anhor holiga keltirilib, dehqonchilik maydonlari ekin turiga ko'ra sug'orib olingan, shuningdek, tog' oldi tekisliklari va Mirzacho'l chegaralarida suv manbalari yo'nalishda hovuzlar barpo qilinib [4:98-99] ekinlar tartibli sug'orilgan.

Qayr zirotchiligi, sug'orma dehqonchilik asosan suv manbalarining o'rta va quyi oqimlarida Mirzacho'l bilan chegara hududlarda shakllandi. Sug'orma dehqonchilikning eng qadimgi manzilgohlari Xujamushkentsoy havzasidagi Xontepa, Sag'anoqtepa I, II qishloq makonlari mavzei hisoblanadi. Xontepa yodgorligi quyi qatlami mil. avv. V-IV asrlar, yuqori qatlami mil. avv. IV-III asrlar bilan davrlashtiriladi. Sag'anoqtepa yodgorliklari majmuisi mil. avv. IV-III asrlarda faoliyat ko'rsatib [7:21-22; 8:50], bu manzilgohlarda istiqomat qilgan aholi qayr (liman) sug'orma dehqonchiligi bilan shug'ullanib umrguzaronlik qilganlar [26:18]. Xujamushkentsoy havzasidagi qayr (liman) sug'orma dehqonchiligini bugungi kunda ham O'roqli, So'loqli qishloqlari ahlini turmush tarzida kuzatishimiz mumkin.

Yaqin Sharq, Janubiy Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyoning tog'lik va tog' oldi suv taqchil mavzellarida o'tmishda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash, ekin paykallarini sun'iy so'g'orish maqsadida korizlar qazilgan. Koriz- yer osti suvini yig'ish va uni yerning nishab yuzasiga chiqarish uchun mo'ljallangan inshoot bo'lib ulardan antik davrdan to XX asrning 20- yillarigacha foydalanilgan. Bazan bir necha korizlar suvi birlashtirilib, anhorlar hosil bo'lgan. Korizlar yozda o't-o'lanlardan tozalab turilgan. R. Frayning tahliliga ko'ra ahamoniylar suv inshootlari qurilishiga katta e'tibor berib, o'z hisobidan korizlar qurgan kishilarning besh avlodiga, sug'oriladigan yerdan foydalanish huquqini bergan ekan [28:160]. Ustrushonaning irrigatsiya inshootlari tarixini o'rgangan A. Bilalovning ta'kidlashicha, Markaziy Ustrushona qishloq xo'jaligida koriz sug'orish tizimidan keng foydalanilgan, uning tahlillariga ko'ra Xovos va Jizzax oralig'ida ko'plab korizlar faoliyat ko'rsatgan [4:70-83]. Masalan, Dashtoboddan 3 km. g'arbda o'rta asrlarga ta'luqli Qoratepa manzilgohi atrofidagi korizni XX asr boshlarida qayta tiklab Mulla Usmonqul ekinzorni sug'orishda foydalanilgan. Shuningdek, Zomin tumaning Chiyali qishlog'idan shimol tomonda taxminan 10-12 km. shimoli-g'arbida "Koriz" nomli ovul bo'lgan [16:15]. Bu yerda bir necha korizlar suvi birlashtirilib bir qirdan ikkinchisiga olib o'tilgan. O'zR FA Arxeologiya Institutining Jizzix ekspeditsiyasi rahbari M. Pardayev boshchiligida Bahmal tumani Novqa qishlog'ida topib o'rganilgan koriz XI-XII asrlarda faoliyat yuritgan deb baholandi.

O'rta Osiyo qadimdan geografik jihatdan betakror hududda joylashgan. Buni xitoy, yunon-rim, arab manbalaridagi e'tiroflarda ham ko'rishimiz mumkin. Masalan arab geograf olimi Ibn Havqal "Movarounnahr o'zining mavqeiga ko'ra olamning eng hosildor, gullab yashnagan va ne'matlarga boy iqlimlardan biridir" [13:15]- degandi. Bu e'tirof zamirida geografik muhitga mos dehqonchilik – bog'dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq qadimdan rivojlanganligi, ajdodlarimizni halol mehnat bilan, go'zal hayot kechirganliklarini his etishimiz mumkin. Movarounnahrning mo'l-ko'l mevazorlar, ketma-ket yaylovlar, g'allazor makonlaridan biri Ustrushona edi. Ibn Havqalning yozishicha Ustrushonada kema yursa bo'ladigan daryo ham ko'l ham yo'q lekin uning ekinzorlari, yaylovlari va qishloqlari obod hosildor va (turli tuman) mahsulotlarga boy [13:70]. Uning e'tirofiga ko'ra Ustrushonada obod va ko'rkam shaharlar ko'p bo'lib ishlab chiqaruvchi kuchlar ishlab chiqarish munosabatlarining tarqqiy etganligi tushinishimiz zarur.

Nomalum muallif topganidan yozilgan "Hudud ul-Olam" asaridagi ma'lumotlarga ko'ra Zomin mustahkam qo'rg'oni bor, ekinzorlari ko'p bir joy erur. Dehqonchilik bog'dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilikdagi mahsuldorlik, mintaqaviy savdo markazlarini shakllanishiga olib kelgan. Jizzax shahri yaqinida Marasmandada bir yilda bir kun bozor bo'ladi va o'sha kuni ul bozorda 100 ming dinor savdo qilinadi. Ustrushonaning sharqida esa qo'shni viloyatlar bilan Ho'jand shahri bozorlarida turli mahsulotlar ayirboshlangan [3:13-40].

Ibn-Havqal bu o'lkada mevalarni juda ko'p yetishtirilishini, hatto uy hayvonlari mevalar bilan boqilishi haqidagi ma'lumotni keltiradi [13:337]. Ma'lumki xo'jalik yili qonuniyatlariga ko'ra g'alla ekinlari mo'l bo'lgan yili, bog'dorchilikda hosil kam bo'lgan, bog'dorchilikda mo'l-ko'l hosil

olingan yili esa aksincha. Shuningdek qirg'ochilik kelgan xo'jalik yillarida chorvadorlar ozuqa sifatida mevali daraxtlar barglari va mevalar bilan chorva mollarini boqishgan.

Movarovnahrning tarixiy-geografik o'rni, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti haqida Al-Istahriy "suv bilan taminlanmagan shahar, qishloq, ekinzor va yaylovlarning o'zi yo'qdir. Eng toza, eng yumshoq, eng hushta'm suv ulardadir" [17:18-26] -deydi. Al-Muqaddasiy Jizzaxni tekis yerda joylashgan shahar, aholisi zich, havosi sof, oqar suvi toza, hushta'm bog' va ekinlari ko'p, kavonsaroylari eshigi savdogarlar va sayyohlar uchun hamisha ochiq shahar sifatida qayd etsa, Al-Istahriy mintaqada bog'lar, uzumzorlar va ekinzorlar mavjudligini ta'kidlab o'tishgan [23:44-45]. Yoqut Hamafiy Zominni mo'l oqar suvli, cheksiz g'allazorlari, anvoyi bog'lari, son-sanoqsiz chorva mollari to'g'risida ma'lumot bergan [29:26]. Zahiriddin Muhammad Bobur "Dizakda" semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovonligi"ni [5:86] tasvirlaydi, uning malumotlari orqali mintaqa aholisini ziroatchilik va chorvachilik bilan shug'illanib farovon turmush kechirganligini anglashimiz mumkin.

Mintaqa aholisining asosiy g'alla ekinlari – bug'doy, arpa, so'li, edi [11:132]. Bug'doyning qaerga, qaysi vaqtda, ya'ni, lalmikor va sug'oriladigan yerlarga shuningdek qishki va bahorda ekiladigan har bir navning bir necha turlari bo'lgan. Masalan bug'doyning lalmikor turlari: qora qiltiriq, kallak, nura kabilar bo'lsa yerning nomi ko'proq soqlanadigan hududlarga oq bug'doy, qizil kovoyi, qayroqi bug'doy, qizil sariq mag'iz ekilar edi [27:282-318]. Bug'doy va arpani asosan qishki navlari ekilib arpaning ham bir necha turlari bo'lgan. No'hat, juhori asosan bahorda ekilgan.

Turkiston, Molguzar tog' tizmasi shimoliy etaklarida qadimdan g'alla ekinlaridan ziroatkorlar mo'l hosil yetishtirib kelganlar. Qo'qon xoni Umarxonning 1819- yilda O'ratepaga yurishi bug'doy pishig'i davriga to'g'ri kelib, "Bug'doy shunchalik o'sganki, agar bug'doyzorga otliq kirsar, uni ko'rish mumkin bo'lmagan" [20:169-176]. Yilning qurg'ochilik kelishi, chigirtka bosqini kabi ekoomillarga ko'ra g'alla ekinlari kam yetishtirilgan davrlarda Samarqand, Xo'jand, Qo'qon va boshqa shaharlarga o'lkadan bug'doy chiqarilgan. Masalan, 1870- yilda O'ratepa uyezdidan Samarqandga 250 000 pud g'alla yetkazib berilgan [10:48]. Har yili Ho'jand uyezdidan 100 ming pud g'alla, Jizzax uyezdidan 10 ming pud arpa chiqarib turilgan [27:130]. Mintaqaning janubiy bozorlari Matcho, Falg'ar, Yag'nob, Fanga muntazam don yetishtirib bergan [27:71, 231]. Demak, o'lkada g'allachilik yetakchi xo'jalik tarmoqlaridan biri bo'lgan va ziroatkorlarning donli ekinlar yetishtirishda yetarli tajribalarga ega bo'lganlar. Donli ekinlardan no'hot, juhori, tariq, mosh, loviya, yog'li ekinlardan kunjut, zig'ir, maxsar, indov, qo'noq shuningdek kanop ziroatkorlar tomonidan yetishtirilib xo'jalik va turmush hayotda keng foydalanilgan. Mintaqaning Sirdaryo qirg'oqlari bilan tutash hududlaridagi qulay sersuv ziroatkor maydonlarida sholining devzira, rasmi, malla gurunchdan iborat uchta navi yetishtirilgan. G'o'zaning Buxoro, Ho'jand (uch chanoqli) va Malla paxta navlari yetishtirilib [11:141-143], paxtachilik ziroatkorchiligida qadimdan yuqori hosil yetishtirish tajribalari to'plangan [24:233]. Shuningdek, ipakchilik anchalik yaxshi rivojlangandi.

Yuqorida arab muarrixlari ta'kidlagandek Ustrushonada bog'dorchilik sohasi xam anchalik kengqamrovli, mahsuldor edi. O'lkadagi bog'dorchilik ikki jihati bilan e'tiborni tortadi: birinchidan tabiiy, ikkinchidan ziroatkorlar tomonidan yaratilgan bog'lardir. Daryo, soylar, vohalaridan tog' tomon buta, daraxtlar qavatma-qavat joylashib, tabiiy bog'larni tashkil etib turli mevalar yetishgan. Tog' yon bag'irlardagi hamma toshloq joylarda ilg'ay, namatak, uchqat, zirk butasi, olma, o'rik, yong'oq, do'lana va boshqa mevali daraxtlar terak, tol, sada kabilar bilan tig'iz aralash o'sgan. Ulardan yuqorida turish olcha, Buxoro bodomi, tog'lar tomonida pistazor boshlangan. Turli mevali daraxtlar Sirdaryo sohilidagi butazorlarda ham keng tarqalgan. Tabiiy bog'larda yovvoyi holda o'sadigan mevali daraxtlarni hosilini ham mahalliy aholi terib olib ist'emol qilgan.

Ziroatkor bog'bonlar yaratgan bog'lar uydan uzoqda tomorqaning ichkarisida joylashgan. An'anaviy tartibga ko'ra bog'larning chekasiga terak, tut, o'rik, tol, jiyda kabilar ekilgan. Aholi olma, nok, behi, olho'ri kabi urug'li, o'rik, yong'oq, shaftoli, olcha, gilos, bodom kabi danakli mevalarni tomorqa ichkarisida, uy yaqinida uzum yetishtirishgan. Bog'lardagi mevali daraxtlarning oraliq maydonlarida bug'doy, arpa, jo'xori, makka-jo'xori ba'zan beda yetishtirilardi edi. Har bir mevali daraxtning hosili yetilib pishish vaqti va ta'mi farqlariga ko'ra bir necha navlari, hamda har bir navning bir qancha turlari bog'bonlar tomonida yaratilgan. Masalan, anorning to'rtta navi,

o'rikning yetti navini, o'n sakkiz turi [11:89], shuningdek, olmaning o'nga yaqin navlarining [27:282] bir necha turlari mavjud edi.

Mevalar tabiiy holda, quritilib shinni-murabbo tarzida va quyosh nurlarida quritilgan murabbo qoqisi yil davomida ist'emol qilingan. Aholi har bir mevani tabiiy holda asrab to yangi hosilga qadar saqlab yetkazishga harakat qilgan. Mevali daraxtlarning barglari, quritilgan meva qoqilari ba'zan chorvaga yem sifatida ishlatishgan.

Bog' va uzumzorlar sug'oriladigan yerlarda bo'lib oldi sotti qilinsa yuqori baholangan. Uzumchilik mintaqa iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etib [18:8] mahsuldor sohalardan biri bo'lgan. Mintaqada uzumning 13 hil navi yetishtirilib [19:170] ularning qatorida boshqa sharq mamlakatlaridan xususan Arabistondan keltirilgan "Toyfi", Hindistondan "Kalanjari", Afg'onistondan "Shivilg'oni", "Qobulistoni", "Balxi", Erondan "Baxtiyori", "Doroi" kabi uzum navlari bo'lib ularning aksariyati bugungi kungacha saqlanib qolgan [11:97-110].

Zamonaviy Zomin, Yangiobod tumanlari aholisi qadimdan polizchilikda qovun- tarvuz, qovoqlarni ham lalmikor ham suvlikor yerlarda yetishtirishgan. Tog' etaklaridagi Tovoqbuloq, Qutchi qishloqlari ahli qadimdan lalmikor qovun, tarvuz, qovoq ekinlarini yetishtirib mo'l hosil olib kelishgan bo'lsa, Turkman, Beshkubiliklar lalmikor tarvuzdan mo'l hosil yetishtirganlar. Garchand lalmikor qovun-tarvuzlar nisbatan kichik bo'lsada betakror lazzatli ta'mga ega bo'lgan.

Sirdaryo yaqinidagi Sho'rko'l qishlog'i aholisi shakarpalak, toqi, qizil po'rsildoq, bo'rikalla, bosvoldi qovun navlarini ekishgan [27:198]. Uyas qishlog'i aholisi atrofda "qovunchilar" nomi bilan mashhur bo'lib uzoq saqlanadigan va tashishga mo'jallangan qalin po'stoqli qizil po'rsildoq qovunini yetishtirishgan [27:192]. Xovos-Jizzax yo'nalishida qazilgan korizlar atrofida yashovchi aholi xam qadimdan turli-tuman ziroatchilik mahsulotlarini yetishtirishgan. Xususan, Zomin tumani Chiyali qishlog'i ahli koriz suvidan foydalanib qovun-tarvuz parvarishlab mo'l hosil olishgan. Katta xurjunni bir ko'ziga bitta qovun joy bo'lib, bir xurjunga ikkita qovun sig'gan ekan [16:15]. Sirdaryo bo'yidagi Farmon Qo'rg'on, Turkiston, Mevagul tog' tizmalari tutash hududidagi Qatag'on, Sarito'g'ay qishloqlari va G'oziyon, Oqariq o'ng'orlarida har yili avgust oyida qovun sayli o'tkazilgan [27:66, 180].

Turkiston, Molguzar tog' tizmalari, Mirzacho'lning tabiiy resurslari, xo'jalik taraqqiysi tahlili o'ziga xos lokal mikrova ekanligi, mintaqada istiqomat qilgan etosga xos tarixiy-madaniy xo'jalik an'ana va qadriyatlarini uzviy evolyusiyasi, hududning iqlimi hamda landshafti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

4. Xulosalar:

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- Mintaqa kesimida ho'jalik-madaniy tiplarining yo'nalishlariga doir maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan bo'lib, fikrimizcha sug'orma dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmadchilik, chorvachilik bilan birgalikda tog' va tog' oldi dehqonchilik ho'jaligi hamda dasht dehqonchiligi va yaylov chorvachiligi kabi xalqimizga xos uch xo'jalik-maday tiplarini mikrovoha tarixiy-madaniy taraqqiyotini ko'rishimiz mumkin.

- Ustrushona suv manbalari tog'li mintaqalarda chuqur soylarda tez oqqanligi sababli lalmikor dehqonchilik ustuvor xo'jalik yuritish tizimi bo'lib qoldi. Lalmikor dehqonchilikda selob, loyqa dehqonchiligi, yerga ob-tobi ishlov berib urug' sochish uchun yomg'irli kunlarni kutish, yoki urug'ni chuqur tashlab mola tortish tajribalari ommalashdi.

- Mintaqada sug'orma dehqonchilikning ilk kurtagi bo'lgan qulfakli hovuzlar, korizlar qurilishi, qayir(leman) kabi arxaik dehqonchilik uslublaridan kelgusida sug'orma dehqonchilik saoslarini shakllanishi tarixiy tajribasini berdi.

- Tog' oldi va Mirzacho'l chegarasida antik davrdan murakkab suv inshooti korizlar qurilishi, mil. avv. IV-III asrlarda qayr(leman) sug'orma dehqonligining taraqqiysi o'troq turmush tarzi va ilk shaharsozlik madaniyati poydevori omili bo'ldi.

- Dehqonchilikning turli sohalarida yetishtirilgan mahsulotlar janubda Bunjikent orqali - Matcho, Falg'ar, Yag'nob, Fanga, shimolda Xovos orqali - Toshkent vohasiga, sharqda Xo'jand orqali Farg'ona vodiysiga, g'arbda Zomin va Jizzax orqali Zarafshon vohasiga Buyuk ipak yo'li orqali yetkazib berilib, o'lkada shaharsozlik madaniyatiga asos solingan. Turli xalq sayllari, hosil

bayramlari qo'shni o'lkalarga yaqin urbanizatsion markazlar atrofida uyushtirilib qo'ni-qo'shni xalqlar o'zaro xursandchilik qilishgan va tovar ayriboshlab savdo-madaniy aloqa bo'lgan.

- Ma'lumki Ustrushona tarixiy taraqqiyotning turli davrlari, davlatchilik tarixida siyosiy tuzilmalar chekka chegarasida keldi, turli yog'iyalar bosqini halokatli kechdi... Lekin hamisha mahalliy hukmronlik, o'zini-o'zi boshqarish yetakchilik qildi. Buning bosh sababi sifatida albatta tabiiy resurslar boyligi, sermahsul xo'jalik tarmoqlari mavjudligi bilan izohlanadi.

- Sobiq Ittifoq davrida mintaqqa iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etib, aholi bog'dorchilik, chorvachilik va lalimkor dehqonchilik, Mirzacho'lda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib keldi. Tog'li G'allaorol g'alla yetishtirishga, Forish uzumchilikka, Baxmal olma yetishtirishga, Zomin, Yangiobod tumanlari donli ekinlar ekishga ixtisoslashtirildi. Bugungi kunda tog'li tumanlarda intensiv bog'lar yaratilib, tog' oldi tumanlarida yer osti suvlari chiqarilib dehqonchilikning turli sohalari rivojlanib bormoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Алибеков У.Ю. Земледельческие обычаи и обряды этноэкологической культуре народов Узбекистана // Проблемы современной науки и образования. – Москва, 2016, №11 (53). Alibekov U.Yu. Agricultural customs and rituals of the ethno-ecological culture of the peoples of Uzbekistan // Problems of modern science and education. – Moscow, 2016, No. 11 (53).
2. Алибеков У.Ю. Ўзбек халқининг даврий дарё тошқинлари билан боғлиқ календарь удумлари хусусида // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент. 2017. №1/4. Alibekov U.Yu. About the calendar rituals of the Uzbek people related to periodic river floods // News of UzMU. - Tashkent. 2017. №1/4 – В. 11-15
3. Бетгер Е.К.Извлечение из книги “Пути и страны” Абу-л Касима ибн Хаукаля. // ТСАГУ. Вып. CXI. – Ташкент, 1957. Betger E.K. Extract from the book “Paths and Countries” by Abul Qasim ibn Haukal. // TSAGU. Vol. CXI. – Tashkent, 1957.
4. Билалов А.И. Из истории ирригации Уструшаны. – Душанбе: Дониш, 1980. Bilalov A.I. From the history of irrigation in Ustrushany. – Dushanbe: Donish, 1980.
5. Бобур Захриддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. Babur Zahriddin Muhammad. Boburnama. - Tashkent: Yulduzcha, 1989.
6. Бурхард Брентъес. От Шанидара до Аккада. – Москва: Наука, 1976. Burchard Brentjes. From Shanidar to Akkad. – Moscow: Science, 1976.
7. Грицина А.А. Северная Уструшана в середине I тысячелетия до н. э.,-начале XIII в. АКД. – Самарканд: 1990. Gritsina A.A. Northern Ustrushana in the middle of the 1st millennium BC, beginning of the 13th century. AKD. – Samarkand: 1990.
8. Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьнской области. – Ташкент: Фан, 1992. Gritsina A.A. Archaeological monuments of the Syrdarya region. – Tashkent: Fan, 1992.
9. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1959. Ghulomov Ya.G'. Khorezm irrigation history. - Tashkent: Uz FA publishing house, 1959.
10. Ежегодник. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. I. – СПб., 1872. Yearbook. Materials for statistics of the Turkestan region. Vol. I. – St. Petersburg, 1872.
11. Ершов Н.Н. Сельское хозяйство таджиков Ленинабадского района Таджикской ССР перед Октябрьской революций (Историческо-этнографический очерк). – Сталинабад . Изд А.Н. Тадж. ССР, 1960. Ershov N.N. Agriculture of the Tajiks of the Leninabad region of the Tajik SSR before the October Revolution (Historical and ethnographic essay). - Stalinabad. Published by A.N. Taj. SSR, 1960.
12. Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани(тарихий этнографик лавҳалар). – Тошкент: O'zbekiston, 2012. Jabbarov I. A place of high culture and unique spirituality (historical ethnographic records). - Tashkent: Uzbekistan, 2012.

13. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Ш.С. Камолиддин таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2011. Ibn Havqal. Book photo al-ard. Sh.S. Translated by Kamoliddin. - Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2011.
14. История Древнего Востока. Ч. I. Месопотамия. Под.ред. Дьяконова И.М. – Москва: Наука, 1983. History of the Ancient East. Part I. Mesopotamia. Ed. Dyakonova I.M. – Moscow: Science, 1983.
15. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. Kabirov J., Sagdullaev A. Archeology of Central Asia - Tashkent: Teacher, 1990.
16. Каримкулов А. Сирбўйи Қорақалпоқлари тарихи. – Гулистон: Зиё, 2006. Karimkulov A. History of Sirboyi Karakalpaks. - Gulistan: Ziya, 2006.
17. Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып.1. – Москва: Наука, 1973. Materials on the history of the Kyrgyz people and Kyrgyzstan. Issue 1. – Moscow: Science, 1973.
18. Материалы по истории Ура-Тюбе. Сборник актов XVII – XIX в.в. / Сост. пер. и пред. А.Мухтарова, Под.ред. А.А. Семенова и О.Д.Чехович. – Москва: Издательство Восточной Литературы, 1963. Materials on the history of Ura-Tube. Collection of acts of the 17th – 19th centuries. / Comp. lane and prev. A. Mukhtarova, Ed. A.A. Semenov and O.D. Chekhovich. – Moscow: Publishing House of Eastern Literature, 1963.
19. Мухтаров А. Очерки истории Ура – Тюбинского владения в XIX в. –Душанбе: Изд. А.Н. Таджикской ССР. 1964. Mukhtarov A. Essays on the history of Ur - Tyubinsky possession in the 19th century. –Dushanbe: Publishing house. A.N. Tajik SSR. 1964.
20. Муҳаммад Хакимхон. Мунтахаб ат-таворих. Нашрга тайёрловчи, кириш, табдил ва изоҳлар муаллифи Ш. Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. Muhammad Hakim Khan. Excellent at-Tawarikh. Sh. Vohidov. - Tashkent: New century generation, 2006.
21. Муҳаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1972. Muhammadjanov A.R. Irrigation history of the Lower Zarafshan Valley. - Tashkent: Science, 1972.
22. Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистонинг қадимги гидротехника иншоотлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Muhammadjanov A.R. Ancient hydrotechnical structures of Uzbekistan. - Tashkent: Uzbekistan, 1997. - В. 8-9.
23. Нематов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. – Душанбе: Дониш, 1957. Nematov N.N. Ustrushana in antiquity and the early Middle Ages. – Dushanbe: Donish, 1957.
24. Пардаев М.Х, Суюнов С.С., Пардаев А.Х. Шимолий-ғарбий Уструшонада суғорма деҳқончилик хўжалигининг пайдо бўлиши ва таракқиёт босқичлари // ЎММТ, 30-нашр. – Самарқанд, 1999. Pardaev M.H., Suyunov S.S., Pardaev A.H. The emergence and stages of development of irrigated agriculture in North-West Ustrushona // ОММТ, 30th edition. - Samarkand, 1999.
25. Соатова С. К этнографии водопользования населения Джизакского региона в условиях богарного земледелия // Марказий Осиё тарихининг манбашунослиги ва тарихнавислиги масалалари. Республика V илмий-назарий конференцияси материаллари. – ТДШИ, 2013. Soatova S. On the ethnography of water use by the population of the Jizzakh region in conditions of rain-fed agriculture // Markaziy Osiyo tarihinig manbashunosliga wa tarikhnavisligi masalalari. Republic V ilmiy-nazarii konferencesi materiallari. – TDSHI, 2013.
26. Туйчибаев Б.Б Уструшана в древности и раннем средневековье. Автореф дисс. на соиск. к. и. н. – Самарқанд, 2004. Tuychibaev B.B. Ustrushana in antiquity and the early Middle Ages. Abstract of dissertation. for the job application k.i. n. – Samarkand, 2004.
27. Турсунов Н.О. Развитие городских и сельских поселений Северного Таджикистана в XVIII – начале XX вв. (историко-этнографические очерки). –Душанбе: Ирфон, 1991. Tursunov N.O. Development of urban and rural settlements of Northern Tajikistan in the 18th – early 20th centuries. (historical and ethnographic essays). – Dushanbe: Irfon, 1991.

28. Фрай Р. Наследие Ирана. – Москва: Изд. вост. лит., 1972. Fry R. Heritage of Iran. – Moscow: Publishing house. eastern lit., 1972.
29. Хикматуллаев Х., Шоисломов Ш. Ёкут Ҳамафий. – Тошкент: Фан, 1965. Khikmatullaev H., Shoislomov Sh. Yakut Hamafi. - Tashkent: Science, 1965.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000